

**RAOAMLAR:**

- Qurilish ishlari hajmi  
**-733,3 mlrd. so'm**
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi  
**-7,5 %**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar **-67,6 %**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi  
**- 24,9 %**

**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari**

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 733,3 mlrd. so'mlik **qurilish ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,1 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,6 %i yoki 495,8 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,4 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 24,9 % yoki 182,4 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,2 %ni tashkil etdi.

**Yirik pudrat tashkilotlari:**

- hajmi - 55,1 mlrd.so'm
- o'sish sur'ati - 76,4 %

**Kichik korxona va mikrofirmalar:**


- hajmi - 495,8 mlrd.so'm
- o'sish sur'ati - 109,4%

**Norasmiy sektor:**


- hajmi - 182,4
- mlrd.so'm
- o'sish sur'ati - 124,2 %



## Qurilish ishlari (mlrd.so'm)





### 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'm)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 71,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,8 % ga ko'paydi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 18,5 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,5 % ga kamaydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 10,2 % ga to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,3 % ga kamaydi.



**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari  
quyidagicha ifodalanadi:**




**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari  
umumiyy hajmida hududlarning ulushi**



Hududlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining 36,3 % ni tashkil etdi, Sirdaryo tumanida 11,9 % ni, Mirzaobod tumanida 8,8 % ni va Yangiyer shahrida bajarilgan qurilish ishlari 7,3 % ni tashkil etdi.

**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida  
bajaruvchi sub'ektlar bo'yicha  
qurilish ishlari**




Joriy davrda jami qurilish ishlaring katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar xissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari xajmidagi ulushi 67,6 % ni tashkil etdi.

Yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, jami qurilish ishlaridagi ulushi 7,5 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga kamaydi.




Norasmiy sektor xissasiga jami qurilish ishlaring 24,9 % ga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,2% ga ko`paydi.



**2018 yil yanvar-dekabr oylarida  
Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari, (mlrd.so'm)**



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 682,3 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 93,0 % ini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,6 % ga o'sdi.



**Sirdaryo viloyat statistika  
boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

**G'.Qarshiyev**  
(0371) 230-86-27